

## Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2018 yil yanvar– avgust


### RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **2501 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,6 % kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **2300 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-avgust oyida viloyatda 3126 ta korxonalar va tashkilotlar yangi faoliyat ko'rsatayotgan korxona tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan ta (11,3 %) ga 568 taga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning faoliyat ko'rsatayotgan shu davriga nisbatan 53,7 % korxonalar va tashkilotlarga kamaygan hamda ularning asosiy ulushi Samarqand shahrida (31,5 %), Urgut (9,2%), Pastdarg'om (7,6%) va Samarqand (6,8%) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Samarqand viloyati	<b>24831</b>	<b>100,0</b>	<b>23446</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	7836	31,5	7406	31,6
Kattaqo'rg'on sh.	881	3,5	860	3,6
tumanlar :				
Oqdaryo	961	3,8	912	3,9
Bulung'ur	922	3,7	872	3,7
Jomboy	815	3,3	778	3,3
Ishtixon	1255	5	1162	4,9
Kattaqo'rg'on	1144	4,6	1062	4,5
Qo'shrabot	567	2,3	543	2,3
Narpay	899	3,6	867	3,7
Payariq	1348	5,4	1260	5,4
Pastdarg'om	1962	7,9	1783	7,6
Paxtachi	646	2,6	597	2,5
Samarqand	1704	6,9	1604	6,8
Nurobod	687	2,8	622	2,7
Urgut	2223	8,9	2174	9,3
Tayloq	981	3,9	944	4,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,4 % savdoda, 18,3 % sanoatda, 8,5 % qurilishda, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,2 % tashish va saqlash, 1,7 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-avgust holatiga 3126 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 18,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahrida (912 ta), Samarqand (253 ta), Urgut (245 ta) va Pastdarg'om tumanlarida (219 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (67 ta), Narpay (74 ta) hamda Qo'shrabot (80 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoatda (663 ta), savdoda (641 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (418 ta), qurilishda (371 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (298 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa, axborot va aloqada (53 ta), tashish va saqlashda (70 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (79 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

	2017 yil yanvar-avgustda	2018 yil yanvar-avgustda
<b>Jami:</b>	<b>2558</b>	<b>3126</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	350	418
Sanoat	712	663
Qurilish	234	371
Savdo	517	641
Tashish va saqlash	81	70
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	305	298
Axborot va aloqa	56	53
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	73	79
Boshqa turlari	230	533

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 sentyabr holatiga 18291 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 4677 ta, oilaviy korxonalar – 2124 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 11001 ta, boshqalarda 489 tani tashkil etdi.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 372 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 100 taga yoki 26,9 % ga o`sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 361 tasi qo`shma korxonalar, 92 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahri (187 ta, 51,8 %), Urgut (37 ta, 10,2 %) va Jomboy tumanlari (28 ta, 7,8 %) hissalariga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot va Kattaqurg'on (1 ta, 0,3 %), Narpay (4 ta, 1,1 %) hamda Paxtachi (5 ta, 1,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa, mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 224 ta (62,0 %), savdoda 49 ta (13,6 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 21 ta (5,8 %) tashkil qilgan.

Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (1,1 %), axborot va aloqada 3 ta (0,8 %), tashish va saqlashda 6 ta (1,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 30 ta (8,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10 ta (2,8 %) va qurilishda 14 ta (3,9 %) tashkil qilgan.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da






2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 82 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52 taga ko'paygan yoki 2,7 barobarga oshgan.


Bunda, Turkiya Respublikasi – 18 ta, Koreya Respublikasi – 13 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 10 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-8 ta va Ukraina-3 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston, Germaniya Federativ Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-avgust holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 29 ta, savdoda 16 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 14 ta, qurilishda 12 ta va boshqa faoliyat turlarida 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 18178 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 12,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6176 tasi (34,0 %) Samarqand shahriga, 1739 tasi (9,6 %) Urgut, 1334 tasi (7,3 %) Samarqand hamda 1333 tasi (7,3 %) Pastdarg'om tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 18178 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5223 tasi (28,7 %) - savdoda, 4273 tasi (23,5 %) - sanoatda, 2000 tasi (11,0 %) - qurilishda, 1672 tasi (9,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1439 tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 726 tasi (4,0 %) - tashish va saqlashda, 378 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 426 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2041 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 2794 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 10.1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida (845 ta), Samarqand (241 ta), Urgut (213 ta) va Pastdarg'om tumanlarida (186 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (50 ta), Narpay (65 ta) hamda Qo'shrabot (69 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (663 ta), savdoda (641 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (417 ta) va qurilishda (371 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (53 ta), tashish va saqlashda (70 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (79 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 2208 tani tashkil etib, ulardan 2124 tasi yoki 96,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 42,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 33,8 % yoki 719 tasi sanoat, 27,0 % yoki 574 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,4 % yoki 390 tasi savdo, 9,4 % yoki 200 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 23 tasi qurilish, 1,7 % yoki 36 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 17 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 8 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,4 % yoki 157 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **F.Zulfuqorov**  
(0371) 230-85-42,43